O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING NAVOIY
VILOYATI BOSHQARMASI

210100 Navoiy sh. Zarapetyana-10, Tel/Faks: 71-203-11-05, E-mail: navoi.ex@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Nomozov Akrom Otaqulovich
Sana: 23-10-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

220434 - SONLI

Obyekt nomi: “Navoiy viloyat Navoiy shahar “Me’mor” MFY “M. Tarobiy” ko’chasida ko’p qavatli turar-joy binosi savdo va maishiy xonalari bilan qurish” ishchi loyihasi bo’yicha.	
Buyurtmachi:	NAVOIY REAL QURILISH SERVIS MCHJ
Bosh loyihachi:	"NAVOIY BINOKOR LOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	031691

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Navoiy shahar qurilish bo’limining 2023-yil 14-dekabrdagi 1712401-146168-son Ob’ektni qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga Ruxsatnoma.

1.2. Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i 2023-yil 22-dekabr sanasidagi 1712-1712401-100534-sonli, Navoiy viloyat qurilish bosh boshqarmasi arxitektura-rejalashtirish bo’limi tomonidan berilgan. (may.gov.uz).

1.3. Navoiy viloyat Navoiy shahar “Me’mor” MFY “M/ Tarobiy” ko’chasida ko’p qavatli turar-joy binosini qurish ob’ekti bo’yicha muxandislik geologiya xulosasi “GEOIZMERENIYA KLASSIK” MChJ tomonidan 2024 yilda tayorlangan, direktori A. G. Jo’rayev tomonidan tasdiqlangan.

1.4. Navoiy viloyat Navoiy shahar “Me’mor” MFY “M. Tarobiy” ko’chasida ko’p qavatli turar-joy binosini savdo va maishiy xizmat ko;rsatish xonalari bilan qurish” ishchi loyihasini ishlab chiqish uchun berilgan loyihalash topshirig’i, buyurtmachi “Nasvoiy real qurilish servis” MCHJ rahbari S. N. Ganjiev tomonidan 2024-yilda tasdiqlangan.

1.5. Ob’ektni muxandislik tarmoqlariga ulash uchun texnik shartlar: Ob’ekt elektr ta’minoti uchun “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Navoiy hududiy filiali” tomonidan 2023-yil 16-oktyabr sanasida berilgan 10/5626-sonli texnik shart; Ob’ekt ichimlik suv ta’minoti va oqova suv chiqindisi chiqarish uchun “Isssiqlik manbai” Navoiy filiali viloyat uy-joy kommunal xizmat

ko’rsatish boshqarmasi “Issiqlik manbai” DUK Navoiy filiali tomonidan 2023-yil 16-oktaybr sanasida berilgan 03-07/18-2435-sonli texnik shart; Ob’ekt gaz ta’minoti uchun “Hududgaz Navoiy” Gaz ta’minoti filiali “Navoiy shahargaz” gazta’minoti bo’limi tomonidan 2023-yil 13-oktaybr sanasida berilgan 38-02-03/254-sonli texnik shart.

1.6. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va taqdim etilgan loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun boshlang'ich ma'lumotlar.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Ishlab chiqish bosqichida loyiha hujjatlari - quyidagilardan iborat ishchi loyiha:

- Umumiy tushuntirish xati (PZ), Qurilishni tashkil qilish loyihasi (POS); Teplotexnik hisob kitob; Energetik pasport;

- grafika qismi, "Bosh reja" qismi; turar-joy bino AR, KJ, OV, VK, GSV, EO, PS, SS, qismlari loyihalari;

- smeta qismi (boshlang'ich qiymatini hisoblash, VPR, LRV).

Ob'ektning qiymati QQS bilan joriy narxlarda – 40 985 329,937 ming so'm.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Hudud va qurilish maydonchasining xususiyatlari.

Mazkur qurilishi rejalashtirilgan ob’ekt qurilish maydoni Navoiy viloyati Navoiy shahar 18-kichik tuman “Me’mor” MFY “M. Tarobiy” ko’chasi mavjud “Elektronika mollari do’koni va tuzatish ustaxonasi” hududida joylashgan. Qurilish uchun tanlangan yer uchastkasi maydonida mavjud “Elektronika mollari do’koni va tuzatish ustaxonasi” binosini bo’lib uni qayta ixtisoslashtirib, o’z hududidan chiqnagan holda 12-qavatli turar-joy bino savdo va maishiy xizmat ko’rsatish xonalari bilan qurish nazarda tutilgan.

Qurilish maydoni IV A qurilish-iqlimiy zonalarining joylashuvi, IA iqlim zonalariga kiradi.

Qurilish hududining iqlimi keskin kontinental bo'lib, yozi uzoq issiq, quruq va qishi qisqa, ammo sovuq.

“GEOIZMERENIYA KLASSIK” MChJ tomonidan 2024-yilda tayorlangan muxandislik geologiya xulosasi natijasiga asosan o’rganilgan qurilish maydonida uchta muxandislik-geologiya (IGE) aniqlangan.

Birinchi muxandislik-geologiya elementi (IGE-1) – lyossli suglinok, kam uchraydigan supes, och jigarran. Qattiq konsistensiyali, yupqa qatlamli dresva va pesok. Yer osti suvlari ustida joylashgan.

Birinchi muxandislik-geologiya elementi (IGE-1) gruntlari cho’kuvchan.

Cho’kuvchanlik bo'yicha tuproq sharoitlari turi - I (birinchi)

Elementning ochilish qatlam qalinligi – 0,09-0,12 m gacha.

Ikkinchi muxandislik-geologiya elementi (IGE-2) – lyossli suglinok, kam uchraydigan supes, och jigarran. yarim qattiqdan tugo plastichniygacha, yupqa qatlamli dresva va pesok, gipsli, gips miqdori 7,5% gacha. Yer osti suvlari ustida joylashgan.

Elementning ochilish qatlam qalinligi – 1,5-2,0 metrgacha.

Uchunchi muxandislik geologik element (IGE-3) dresvali grunt gravelistli pesok aralash, supeschanli to’ldiruvchili.

Elementning ochilish qatlam qalinligi – 2,2-4,0 metrgacha.

Muxandislik-geologiya xulosasi natijasiga ko’ra gruntlar GOST 25100-2020 ning 22-jadvali bo’yicha engil eruvchi tuzlar miqdori bo’yicha sho’rlanmagandan engil sho’rlangan gacha.

GOST 25100-2020 ning 23- jadvali bo’yicha o’rta eruvchi tuzlar miqdori bo’yicha engil sho’rlangan gacha.

QMQ 2.03.11-96 ning 4-jadvali bo’yicha gruntlar GOST 10178-85* bo’yicha portland sementdan tayorlangan betonga nisbatan kuchsiz agressivdan kuchli agressivgacha.

Yer osti suvlari o’rganish paytida (2023-yil Mart oyi) yer yuzasidan 3,5 m chuqurlikda ochilgan.

Seysmik xususiyatlar bo'yicha tuproq toifasi - III (uchunchi)

Ushbu qurilish maydoni uchun tashqi havoning eng katta mutlaq harorati +45,8^{0}C; eng kichik mutlaq harorat – 28,2^{0}C; o'rtacha yillik harorati + 15,4 °C ni tashkil qiladi (Navoiy sh bo’yicha).

Tashqi havoning eng sovuq qishki harorati minus -13^{0}C.

Qor yuki - 0,50 kPa.

Shamol bosimi - 0,38 kPa.

Yillik o‘rtacha yog‘in miqdori 193,9mm (Navoiy bo’yicha).

Tuproqning mavsumiy muzlashining me'yoriy chuqurligi 0,57 m (Navoiy sh bo’yicha har 50 yilda bir marta).

Qurilish maydonining seysmikligi - 7 ball (Navoiy shahar. bo’yicha zilzila takroriyligi 100 yilda bir marta) (QMQ 2.01.03-19 ning 1-ilova jadvali).

Qurilish ploshadkasining seysmikligi – 8 ball (muxandislik geologiya xulosasi natijasi).

3.2. Bosh reja.

Mazkur ob’ekt qurilishi Navoiy viloyati Navoiy shahar “Me’mor” MFY “M. Tarobiy” ko’chasida joylashgan. Bosh reja bo’yicha Navoiy shahar “M. Tarobiy” ko’chasi bo’ylab “Navoiy real qurilish servis” MCHJ ga tegishli elektronika mollari do’koni va tuzatish ustaxonasi o’z hududidan chiqmagan holda ko’p qavatli turar-joy binosi (1-qavat va yerto’la qismida savdo maishiy xizmat ko’rsatish shaxobchallari) qurish rejalashtirrilgan. Bino reja bo’yicha “Г” shaklida joylashtirilgan, bolalar maydonchasi, avtoparkovka, chiqindi yig’ish maydonchasi va qozonxona (2-navbat loyihada joylashtirilgan.

Loyihaviy yo’l va maydonchalar mayda donali issiq asfaltobetondan qalinligi 4sm, chaqiq toshdan 10sm asos ustiga qurish, bino oldi va perimetr bo’yicha otmostka “Bruschatka” plitka qoplama qurish nazarda tutilgan. Qurilish va qoplamadan bo’sh maydon maksimal ko’kalamzorlashtirish nazarda tutilgan.

3.3. Arxitektura – rejalashtirish va konstruksiya qism yechimi.

Ko’p qavatli tuar-joy binosi reja bo’yicha “Г” shaklida loyihalangan bo’lib yer osti qavat va birinchi qavatda savdo do’konlari va maishiy xizmat ko’rsatish xonalari joylashtirilgan. Bino rejada “Г” shaklida bo’lib, ikkita o’zaro anti seysmik chok bilan ajratilgan to’g’ri burchakli bloklardan tashkil topgan. Blok-1 rejada 33,4x22,4 metr, blok-2 rejada 22,8x18,8m o’lchamli. Birinchi qavat xonalar balandligi poldan shiftgacha 3,3m; yer osti qavat balandligi 3,06m. Ikkinchi qavatdan 12-qavatgacha xonalar balandligi 2,97m.

Binoning yer osti qavatida maishiy xizmat ko’rsatish xonalari, texnik maqsaddagi xonalar va sanitar xonalar joylashtirilgan. Birinchi qavatda savdo do’konlari, personal uchun xonalar, omborxona, sanitar xonalari, xol va zina joylashtitirilgan. Ikkinchi qavatdan 12-qavatgacha yashash xonadonlari joylashtitrilgan. Ikkinchi qavatdan 12-qavatgacha 13-ta uch xonali, 18-ta ikki xonali, 11-ta bir xonali turar-joy xonadonlari joylashtirilgan. Podezdda zina va lift shaxtalari joylashtirilgan.

Ichki pardozlash: shift – plitalar orasidagi choklar zatirka qilish pardozlashga tayorlash, elimli bo’yoqlar (kleevaya okraska) bilan bo’yoqlash; devorlar – yaxshilangan suvoqlash, shpaklyovka qilish va elimli bo’yoqlar bilan bo’yoqlash; devor va o’rta bo’luvchi devorlar pastki qismi – oshxona balandligi 1,6m gacha keramik plitka bilan qoplash; yuvinish xonasi, san uzel

xonasi devorlari balandligi 2,97m balandlikgacha keramik plitka bilan qoplash; pollar – yerto'la qavat maishiy xizmat ko'rsatish xonalari pollari yirik o'lchamli keramik plitkalar bilan qoplash; san uzel xonalari pollari keramik plitla qoplash nazarda tutilgan. Birinchi qavat savdo do'konlari xonalari pol qoplamasi yirik o'lchamli keramik plitkalar bilan qoplash; san uzel xonalari pollari keramik plitla qoplash nazarda tutilgan. 2-qavatdan 12-qavatgacha yashash xonalar pollari linoleum to'shama, san uzel va yuvinish xonalar polari keramikplitka qoplash nazarda tutilgan. Yer bilan tutashgan podval qavat pol qoplama ostiga issiqlik himoya qatlami bajarish; san uzel, yuvinish xonalar va shunga o'xshash xonalar pollari 2-qavat gidroizilyatsiya qilish nazarda tutilgan; zina poya va zina ploshadkalri pollari – mozaikali qoplama qurish nazarda tutilgan.

Tashqi pardozlash: Sokol – suniy mramor plitkalari bilan qoplash "Ittalogranit"; devor – issiqlik himoya qatlami ustidan mustahkam qotirilgan plimer to'r ustidan elimli suvoqlash, "Travertin" pardozlovchi materiali bilan pardozlash; kozeryok, Arxitekturaviy elementlar – kompozit panel "Alyukobond" qoplash; dereza – PVX profilli derezalar steklopaket oynalar bilan qoplash; vitraj – PVX profil toblangan shisha bilan oynalash; eshiklar – kirish eshiklari termo izolyatsiyalangan metall eshiklar, san uzel, vanna xonalar, xonalar eshiklari – MDF material; dereza osti taxtalari - PVX profilli; tashqi dereza osti slivlari – ranglangan metall listlardan.

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Umumiy maydon – 11238,0m^2;

Foydali maydon (полезная площадь) – 3492,5 m^2

Qurilish maydoni – 1019,9m^2;

Yashash maydoni – 4075,5 m^2;

Qurilish hajmi – 43070,0 m^3;

shu jumladan yer osti qavat qurilish hajmi – 3845,0 m^3;

Konstruktiv qismi. Turar-joy binosi qattiq tugun ramali fazoviy karkas, quyma temir beton konstruksiya qabul qilingan bo'lib kolonna, rama, mustahkamlash diafragmasi (diafragma jostkosti) va quyma temir beton ora yopma va tom yopma plitalarlarning birgalikda yaxlit ishlashi ta'minlangan va quyidagi asosiy qurilish materiallari va konstruksiyalaridan foydalanib loyihalangan:

Poydevor – qalinligi 1,0 m bo'lgan B25 sinfli quyma temir beton yaxlit plita, yaxlit plita ustidan yerto'la qismi devorning qalinligi 400 mm bo'lgan B20 sinfli quyma temir beton poydevor qurish nazarda tutilgan. Quyma temir beton plita ostiga qalinligi 100mm bo'lgan chaqiq tosh to'shama qurish, to'shama bitum bilan plyonka hosil qilguncha mumlash nazarda tutilgan. Beton poydevor va yerto'la qismi poydevorining tuproq bilan tutashgan yon qismlari sovuq bitum praymer ustidan ikki marta issiq mum emulsiya bilan mumlash nazarda tutilgan.

- Devorlar – tashqi devor qalinligi 250mm bo'lgan gazoblok devor.
- Lift shaxtasi B15 sinfli betondan quyma temir beton;
- Kolonna – 600x400mm o'lchamli B25 sinfli quyama temir beton;
- Rigel – 500x400mm o'lchamli B25 sinfli quyma temir beton;
- Mustahkamlash diafragmasi (diafragma jostkosti) - B25 sinfli quyama temir beton;
- Zina va zina ploshadkalri – B20 sinfli quyma temir beton zina va ploshadkalar;
- O'rta bo'luvchi devorlar – qalinligi 120 mm bo'lgan gazoblok devor. Devorlar balandligi bo'yicha har 600 mm balandlikda SG-1 markali sim-to'r setkalar bilan mustahkamlash nazarda tutilgan.

- Ora yopma, Tom yopma – Qalinligi 160mm bo’lgan B25 sinfli quyma temir beton plitalar; quyma temir beton plita va rigellar yaxlit holda qurish nazarda tutilgan.

Tom qoplama – chordoqli, havo almashadigan tom qoplama, qalinligi 0,7 mm li profillangan metall list yog’och konstruksiyga mustahkam qotirish orqali amalga oshirish belgilangan. Suv qochirish – tartibli, ichki suv lotok va suv olib chiqish quvurlari orqali; barcha yog’och konstruksiyalari yong’inga chiqamli vositalar bilan qoplash, chirishga qarshi preparatlar bilan qoplash nazarda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Isitish va ventilyasiya.

Binoning issiqlik manbai bino ichida joylashtirilgan boshqaruv tuguni (uzel upravleniya) bo’lib xizmat qiladi. Xonalarni isitish tarmog’i vertikal quvur stoyak va kvartira uchun gorizontal ikki quvurli pastdan uzatuvchi magistral quvur va isitish priborlarini ulash uchun tarqatuvchi tizim ishlab chiqilgan. Isitish tarmog’i polipropilen quvurlar GOST 52134-2003 bo’yicha alyumin falga bilan qoplangan isitish tizimi uchun mo’ljallangan stabill PPR (PN20) polipropilen diametri 75÷20mm li quvurlar qabul qilingan. Isitish priborlari sifatida Monza MN-1015 senies bimetall seksiyali radiatorlar qabyl qilingan.

Ventilyasiya – tabiiy va mexanik induksiya bilan ishlaydigan tanlangan. Oshxona, sanitar xonasi va yuvinish xonalari ventilyasiyasi ventilyasion reshyotkalar o’rnatish nazarda tutilgan. Erkin havo almashinuvi fortochkalarni ochib yopish orqali amalga oshiriladi. Oshxona gaz plita ustiga zont (vityajka kuxonnaya v komplekte) komplekti o’rnatish nazarda tutilgan.

Maishiy ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya.

Maishiy ichimlik suvi manbai loyihaviy B1 suv tarmog’i bo’lib xizmat qiladi. Binoga kirish qismida bosim hosil qiliish uchun EPA EVN-40-200/55-3 4314 markali sentrabej nasos stansiyasi 2-komplet o’rnatish nazarda tutilgan. Binoga kirish PPR PN10 markali TEBO polipropilen diametri 75mm li quvur orqali amalga oshirilgan. Ichki ichimlik suv tarmog’i diametri 40÷25mm li GOST 52134-2003 bo’yicha PPR (PN20) polipropilen quvurlardan loyihalangan.

Issiq suv manbai binonig yer to’la qismi xonasida joylashtirilgan isitish tizimidagi boshqarish tuguni (uzel upravleniya) bo’lib xizmat qiladi. Issiq siv T3 tarmog’i diamtri 25÷75mm li GOST 52134-2003 bo’yicha PPR PN20 polipropilen issiq suv uchun mo’ljallangan polipropilen quvurlari tanlangan.

– alternativ variant uchun binonig tomida quvvati 300L bo’lgan XF-II-18-300 tipli 4-komplekt quyosh suv isitish kollektorlari o’rnatilgan.

Kanalizasiya – binoga bitta maishiy oqova suv tarmog’i loyihalangan. Kanalizasiya tarmog’i GOST 32412-2013 ga mansub diametri 50 mm, 110 mm plasmas quvurdan loyihalangan.

B-2 yong’in o’chirish suv ta'minoti

Bino B-2 yong’in o’chirish suv ta’ninoti tarmog’i GOST 10704-91 bo’yicha diametri 89x4mm li suv quvurlaridan loyihalangan. Yong’in o’chirish suv tarmog’ida bosim hosil qilish uchun nasos agregatlari o’rnatish ko’zda tutilgan. Birlamchi yong’in o’chirish

Elektr yoritish.

Tarmoq kuchlanishi 380/220V.

PUE bo'yicha elektr ta'minoti ishonchliligi toifasi III (uchinchi).

Loyihaning ushbu qismida turar-joy binosining elektr yoritish, nasos agregatlari va lift uskunasi kuchlanishli uskunalarini, umum uy va ta’mir payti yoritish tarmoqlari ishlab chiqilgan.

Turar-joy binosining elektr yukini ulash uchun GRSH (ГРЩ) IP67 tipidagi (VRU) kirish-tarqatish moslamasini o'rnatish rejalashtirilgan. Qavatlarda ЩЭ3501-21УХЛ4 ЩЭ3701-21УХЛ4 tipidagi yoritish shitlari o'rnatish ko'zda tutilgan. Kvartiralarda ЩК-4 tipidagi shitlar o'rnatish nazarda tutilgan. Ta'mir paytida yoritish tarmog'i uchun YRV-400-54 Y2 IP54 tipidagi yoritish yashigi tokni pasaytirib beruvchi transformator bilan o'rnatish ko'zda tutilgan.

Turar-joy binosini yoritish uchun xonalar xizmat qilish vazifasidan kelib chiqib svetilniklar tanlangan.

Yashash xonalarida energiya tejovchi lampalar bilan LED lampalarni o'rnatish rejalashtirilgan.

Guruh tarmog'i PVX izolyasiyali VVG simi bilan amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Energiya ta'minoti alternativ variant uchun 55 komplekt Q=550 VT markali quyosh panellari va 14 ta akkumilyator batareya o'rnatish nazarda tutilgan.

FES.

Loyihada quvvati Q-550 VT bo'lgan 55-komplekt quyosh elektr ta'minoti stansiyasi o'rnatish ko'zda tutilgan. (550Wtx55 = 30,25kVt). FES-30,25kVt texnik vositalari majmuasi quyosh panel modullar, akkumilyator batareyasi, invertorlar va ulash kabellaridan iborat.

Energiyasamaradorlik.

Ob'ektning energiytejamkorligini oshirish maqsadida loyihaviy bino tom qismida muqobil energiya manbaalari olish uchun 55-ta Q=550vT li quyosh modul panellari o'rnatish (umumiy quvvati 30,25kVt), issiq suv olish maqsadida alternativ variant uchun binonig tom qismiida 300 litrtli 4 komplekt XF-II-18-300 markali quyosh suv isitish kollektorlari o'rnatilga, ob'ektning ichki va tashqi yoritishi uchun energiya tejamkor lampalar bilan jihozlangan svetilniklar o'rnatish nazarda tutilgan. Koridor va zinalardagi yoritgichlar harakat fotorelelari bilan jihozlangan.

Binoning tashqi devorlari issiqlik tejamkorlik maqsadida qalinligi 250mm li gazoblok devor tashqi tomonidan qalinligi 80 mm bo'lgan PPJ-160, Y=140÷160kg/m^3 markali bazalt asosidagi mineral plitalar yordamida himoyalash nazarda tutilgan. (Issiqlik himoyaning II darajasi). Sokol qismi plitka qoplama ostiga qalinligi 60 mm bo'lgan Y=40kg/m^3 markali ekstruziyalangan penopolisterol plitalar yordamida himoyalash nazarda tutilgan (Issiqlik himoyaning II darajasi).

Pollarning issiqlik izolyatsiyasi uchun qoplama ostidan Ekstruziyalangan penopolisterol (qalinligi 40mm) issiqlik himoya qatlam yotqizish nazarda tutilgan; (Issiqlik himoyaning II darajasi)

Tom qismi issiqlik tejamkorlik maqsadida qalinligi 150 mm bo'lgan PPJ-140-160 markali mineral plitalar yordamida issiqlik izolyasiya qatlami qurish nazarda tutilgan. (Issiqlik himoyaning II darajasi) Issiqlik saqlash qatlami paroizolyatsiya uchun polietilen plyonka o'ralgan.

Dereza romlari ko'p kamerali PVX profil ikki qavatli steklopaket oynalar bilan oynalangan, pod'ezdga kirish va kvartiraga kirish eshiklari termoizolyasiya qilingan metall eshiklar qurish (Issiqlik himoyaning II darajasi).

Issiq suv, isitish tizimi (sistema otopleniya) quvurlarini pol, devor, orayopma va tom yopma konstruksiyalar bilan kesishgan qismlari issiqlik himoya qilingan; Zamonaviy isitish priborlari o'rnatilgan, termoregulyatorlar o'rnatish ko'zda tutilgan. Barcha muxandislik tarmoqlarida energiya sarfini aniqlovchi zamonaviy o'lchagichlar o'rnatish ko'zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ushbu loyiha bo'yicha quyidagi maxsus xulosa mavjud.

- Navoiy viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo’yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2024-yil 19-iyundagi 131611284-sonli xulosasi;

- Davlat ekologik ekspertizasi markazi Navoiy viloyati boshqarmasi Davlat ekologik ekspertizasining 2024- yil 21-avgustdagi 01-02/06-733 –sonli xulosasi.

- Loyihaoldi Jamoatchilik fikri o’rganilib 2022-yil 30-noyabrda Navoiy shahar “Me’mor” MFY M. Tarobiy ko’chasi 125-uyda yashovchi aholi roziligi olish uchun o’tkazilgan yig’ilish bayoni

5.2. Ushbu loyiha bo’yicha quyidagi tashkilotlar bilan kelishuv bo’lishi kerak:

• Favqulodda vaziyatlar Navoiy viloyat boshqarmasi yongin xavfsizligi bilan.

• Navoiy shahar sanitariya epidemiologiya va osoyishtalik markazi bilan;

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **40 985 329 937** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

3 317 703 843 so'mga oshirilib, **44 303 033 780** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **37 343 476 062** so'm

Asbob-uskunalar: **2 212 804 099** so'm

QQS: **4 746 753 619** so'm

6.1. Smeta qism.

Qurilish tannarxini joriy narxlarda hisoblash Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 iyundagi 261-son qarori “Markazlashgan kapital quyilmalar hisobiga ro’yobga chiqarilayotgan investisiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o’tish to’g’risida”, ShNK 4.01.16-09 “Qurilish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari” ga muvofiq xarajatlarni prognozli joriy narxlarda hisoblash asosida resurs usulidan foydalangan holda amalga oshirilgan va “O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan “QurQiymatAsos-2005” dasturiy majmuasida ishlab chiqilgan

Ish haqi xarajatlari resurs smetasining bir qismi sifatida belgilangan qurilish ishchilarining mehnat xarajatlarini va ishchilarning o'rtacha soatlik ish haqini ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Ishchilarning o'rtacha soatlik ish haqi buyurtmachining ma'lumotlariga ko'ra qabul qilinadi.

Qurilish materiallari, moddiy-texnika resurslari narxlari Buyurtmachi ma’lumotlari va 2024-yil I choragi uchun joriy narxlar katalogiga muvofiq qabul qilingan.

Mashina va mexanizmlarni ishlatish narxi resurs varaqlari bo'yicha brendlarga bo'lgan me'yoriy ehtiyojlar asosida olinadi.

Pudratchining boshqa xarajatlari Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dastlabki ma'lumotlarga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarning 14% doirasida qabul qilinadi.

6.2. “Navoiy viloyat Navoiy shahar “Me’mor” MFY “M. Tarobiy” ko’chasida ko’p qavatli turar-joy binosini savdo va maishiy xizmat ko;rsatish xonalari bilan qurish” ishchi loyihasi loyiha topshirig‘iga muvofiq ishlab chiqilgan.

6.3 “Navoiy viloyat Navoiy shahar “Me’mor” MFY “M. Tarobiy” ko’chasida ko’p qavatli turar-joy binosini savdo va maishiy xizmat ko;rsatish xonalari bilan qurish” ishchi loyihasining barcha bo‘limlari ko‘rib chiqildi.

Shu bilan birga, loyihaning texnologik va konstruktiv yechimlari bo‘yicha buyurtmachining izohlarisiz loyiha ekspertiza uchun taqdim etilgani qayd etilgan.

Shartnoma bo'yicha import va texnologik asbob-uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va bu bilan bog'liq xarajatlar ekspertiza tomonidan hisobga olinmagan.

6.4. Ishchi loyihani ko'rib chiqishda aniqlangan ekspertiza mulohazalari va takliflari 2024-yil “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi platformasi orqali 024784/71905-sonli, 024784/81306-sonli va 031691 /90840-sonli mahalliy ekspert xulosalarida ko'rsatilgan va buyurtmachi hamda loyihalash tashkiloti manziliga yuborildi.

Bundan tashqari: buyurtmachining boshqa xarajatlari QQS bilan – 2 215 151,689ming so'm.

6.5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-apreldagi “Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-161-son qarori talabini bajarish uchun buyurtmachi 2024-yil 04-oktyabrdagi 0410-24-1-son kafolot xati bergan.

6.6. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so’ng nazorat o’lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.7. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

7. Xulosalar.

7.1. “Navoiy viloyat Navoiy shahar “Me’mor” MFY “M. Tarobiy” ko’chasida ko’p qavatli turar-joy binosini savdo va maishiy xizmat ko;rsatish xonalari bilan qurish” ishchi loyihasi talablarga javob beradi va ekspertizani inobatga olingan holda ushbu xulosaning 4.2. bandga muvofiq ijobiy kelishuvga ega bo’lgandan so’ng, qo'shimcha ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

Tavsiya etilgan qurilish qiymati ish shartnomasini tuzish uchun asos bo'lmaydi.

7.2. Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 iyundagi 261-son qarorlariga va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tender savdolarini o'tkazish uchun boshlang'ich qiymati Buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

7.3. Davlat ekspertizasi joriy narxlar katalogi tomonidan hisobga olinmagan qurilish materiallari, asbob-uskunalar narxlari uchun javobgar emas, tartibga solish funktsiyasi Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

7.4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qarori 1-ilova, III bob, 29-bandiga asosan “Davlat ekspertizasiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachi (loyihalash jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi nuqtai nazaridan) va ishlab chiquvchi loyiha tashkiloti (qabul qilingan loyihaviy echim va qarorlari bo'yicha) zimmasiga yuklanadi.

7.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qarori 1-ilovasi 5-bob 36-bandi bo’yicha mazkur ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2-yil.

Bosh ekspert: Axtamov Temur Axad O‘g‘li.

Ishtirokchi ekspertlar: Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Abdullayev Hayotjon Sirojiddin O‘g‘li, Quchqorov Ibrohim Xolmurod O‘g‘li, Valijonov Abdulatif Abduraxim O‘g‘li, Temirova Rano Talibjanovna, Shukurov Zarifboy Rajabovich, Rozikov Xasanjon Xoshimovich